ABDURAHMON TOSHKANDIY MEROSIDA KOMIL INSON TARBIYASI G‘OYALARINING FALSAFIY TAHLILI

X.T.Suvonqulov
Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy yuksalish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlari: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, Abdurahmon Toshkandiy, ma’naviyat, axloq, yoshlar tarbiyasi, ma’rifatparvarlik.

Bugungi globallashuv va keskin ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar kuchayib borayotgan davrda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ma’naviyat, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson omiliga, yoshlar tarbiyasiga hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqimizning boy ma’naviy merosi, jadid-ma’rifatparvarlar faoliyati va ularning axloqiy-falsafiy qarashlarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mazkur konsepsiya milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlashning muhim bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu g‘oya asosida ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish orqali yangi uyg‘onish davrini barpo etish maqsadi ko‘zda tutilgan. Bunda tarixiy tajriba, xususan, Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma’lumki, IX–XII asrlarda yuz bergan Birinchi Sharq Renessansi hamda Amir Temur va temuriylar davridagi Ikkinchi Renessans davri yurtimizda ilm-fan, madaniyat, me’morchilik, adabiyot va axloqiy tafakkurning yuksak taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Ushbu davrlarda yashab ijod qilgan allomalar inson kamoloti, axloqiy poklik, ilm-ma’rifat va komil jamiyat haqidagi qarashlari bilan jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Ayniqsa, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi, yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash masalasi mutafakkirlar ijodining markaziy mavzularidan biri bo‘lgan.

XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadid-ma’rifatparvarlar ham millat taraqqiyotini ilm-fan, ma’rifat va axloqiy yuksalish bilan bog‘laganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon hamda Abdurahmon Toshkandiy kabi ma’rifatparvarlar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash hamda milliy o‘zlikni

anglash g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning qarashlarida ta’lim-tarbiya, odob-axloq va ma’naviy kamolot masalalari muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Abdurahmon Toshkandiy o‘zining “Me’yor ul-axloq” asarida inson axloqi, oilaviy tarbiya, do‘stlik, ustoz-shogird munosabatlari hamda komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlari bilan alohida ajralib turadi.

Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki mutafakkir ilgari surgan g‘oyalar insonparvarlik, vatanparvarlik, halollik, ilmga intilish, kattalarga hurmat, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Hozirgi davrda yoshlarni turli zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, ularning qalbida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat hissini shakllantirishda bunday ma’rifiy merosning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Shu bois mazkur maqolada Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid-ma’rifatparvarlar merosining yoshlar ma’naviy tarbiyasi, milliy yuksalish va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Mazkur tadqiqot yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrash hamda Uchinchi Renessans g‘oyalarini amalga oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonlari hamda Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tarixiy va falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada manbashunoslik metodidan foydalanilib, jadid-ma’rifatparvarlar merosi, xususan Abdurahmon Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asari hamda Renessans va ma’naviyat masalalariga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Tadqiqot davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans va yoshlar tarbiyasiga oid konseptual qarashlari ham metodologik asos sifatida tahlil etildi.

Qiyosiy tahlil metodi asosida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlaridagi ma’naviy yuksalish omillari bilan bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘zaro solishtirildi. Shu bilan birga, axloqiy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya va barkamol avlod masalalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni falsafiy-ijtimoiy yondashuv asosida ochib berildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g‘oyasi, ma’naviy yuksalish hamda jadid-ma’rifatparvarlar merosini o‘rganish masalalari so‘nggi yillarda tarix, falsafa, pedagogika va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan. Ayniqsa, Abdurahmon Toshkandiy ijodi va uning axloqiy qarashlari yoshlar tarbiyasi hamda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan bog‘liq holda ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans va ma’naviy taraqqiyotga oid konseptual qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomalarida ilm-fan, ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish orqali yangi uyg‘onish davrini barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1, B. 2]. Sharq Renessansi va uning tarixiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etishda M.Qodirovning ilmiy maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi. Olim o‘z tadqiqotlarida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining shakllanish omillari, ilm-fan va ma’rifat taraqqiyotining tarixiy asoslarini tahlil qiladi [2, B. 158-160]. Shu bilan birga, Adam Metsning “Musulmon Renessansi” asarida Sharq uyg‘onish davridagi ilm-fan, huquq, madaniyat va ma’rifat taraqqiyoti ilmiy jihatdan yoritilgan [3, B. 144-145].

Jahon falsafasi va Sharq mutafakkirlari merosiga oid tadqiqotlarda ham Renessans davrining ma’naviy asoslari keng yoritiladi. Xususan, “Jahon falsafasi qomusi”da Sharq uyg‘onish davri allomalarining ilm-fan va axloqiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan [4, B. 510]. Abdurahmon Toshkandiy ijodi va jadidchilik harakati bilan bog‘liq masalalar B.Qosimov, Sh.Rizayev, D.Quronov va boshqa adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda ma’rifatparvarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, axloqiy g‘oyalari hamda yoshlar tarbiyasiga oid fikrlari yoritilgan [5, B. 74]. Ayniqsa, jadidchilik harakatining milliy uyg‘onish va ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat, ta’lim va barkamol avlod masalalariga bag‘ishlangan asarlarida ham yoshlar tarbiyasi va milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati chuqur tahlil etiladi [6,

B. 29]. Ushbu qarashlar bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan hamohang ravishda rivojlantirilmoqda.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash hamda jamiyatda milliy qadriyatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Uchinchi Renessans konsepsiyasi xalqimizning tarixiy-ma’naviy merosini qayta tiklash va uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda [1, B. 2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdurahmon Toshkandiy qarashlarining markazida inson axloqi, ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi hamda jamiyat ma’naviy taraqqiyoti masalalari turadi. Uning “Me’yor ul-axloq” asarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kun talablari bilan hamohang bo‘lib, unda yoshlarni halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat va ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi [5, B. 74]. Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining muhim jihatlaridan biri ta’lim va tarbiya uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratilganidadir. Mutafakkir insonni komillikka yetkazishda ilmning o‘zi yetarli emasligini, uni odob-axloq va ma’naviy tarbiya bilan birgalikda olib borish zarurligini qayd etadi. Bu qarashlar bugungi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir [6, B. 29].

Tadqiqot davomida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining tarixiy tajribasi tahlil qilinar ekan, ushbu davrlarda davlat tomonidan ilm-fan va ma’rifatga katta e’tibor qaratilgani, olimlar hamda mutafakkirlar faoliyati qo‘llab-quvvatlangani aniqlandi. Aynan ana shu omillar Sharq uyg‘onish davrlarining yuzaga kelishiga zamin yaratgan [2, B. 158–160]. Shuningdek, jadid-ma’rifatparvarlar faoliyatining asosiy maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, milliy ongni uyg‘otish hamda zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan. Abdurahmon Toshkandiy ham ana shu ma’rifiy harakatning faol vakillaridan biri sifatida xalqni ilm-ma’rifatga, axloqiy poklikka va milliy yuksalishga da’vat etgan [5, B. 74].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Abdurahmon Toshkandiy merosi Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mutafakkirning axloqiy qarashlari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, ma’naviy poklik va komillik fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [3, B. 144–145].

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy-ma’rifiy qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim nazariy va amaliy аҳамият kasb etadi. Mutafakkirning ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi, axloqiy poklik, vatanparvarlik va ma’naviy yuksalish haqidagi g‘oyalari bugungi jamiyat taraqqiyoti bilan hamohangdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadid-ma’rifatparvarlar, xususan Abdurahmon Toshkandiy xalq taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim-tarbiya va ma’naviyatni e’tirof etganlar. Ularning qarashlarida yosh avlodni ilmli, axloqan yetuk, milliy qadriyatlarga sodiq inson qilib tarbiyalash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mazmun-mohiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ilm-fan, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarga tayangan holdagina yuksaladi. Shu sababli Uchinchi Renessansni barpo etishda ham ma’naviyat, ta’lim-tarbiya va yoshlar masalasi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Abdurahmon Toshkandiy merosi yoshlarni vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik va ma’rifat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Mutafakkirning axloqiy qarashlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish yosh avlod ma’naviy kamolotini yuksaltirish, milliy yuksalish g‘oyalarini mustahkamlash hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2020. – №276. – B. 2.
2. Qodirov M. Uchinchi renessans haqida ba’zi mulohazalar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – №2. – B. 158–160.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 74.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 29.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 74.
6. Qodirov M. Uchinchi renessans haqida ba’zi mulohazalar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – №2. – B. 158–160.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2020. – №276. – B. 2.